

## OILANI TURLARGA AJRATISHDA PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK YONDASHUV.

*Do`sjonova Nilufar Rustam qizi*

*3-bosqich. Bakalavr*

*Ajiniyoz Nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti*

**Annotatsiya:** Maqolada oilaning qadimgi turlaridan tortib to hozirgi davr psixologiyasi va pedagogikasidagi turlarga ajratilganligi, oilaning ijtimoiy maqomi, tuzilish xarakteristikasi va shu bilan birgalikda qo`shimcha sifatida oilaning tiplari haqida ma`lumotlar keltirib o`tiladi.

**Kalit so`zlar:** Oila, monogam, to`liq, noto`liq, nuklear, biarxat oila, baynalmilal oila, moslashish, ijtimoiy maqom.

Jamiyatda oilaning rolini o`z kuchi bo`yicha boshqa hech bir ijtimoiy institutlar bilan tenglashtirib bo`lmaydi. Aynan, oilada insoning shaxsi shakllanadi va rivojlanadi, bola jamiyatda qiyinchiliklarsiz moslashib ketishi uchun u oilada ijtimoiy vazifalarni egallaydi. Oila birinchi tarbiyaviy institut sifatida ishtirok etadi, inson o`zining u bilan bog`liqligini butun hayoti davomida his etadi. Oilada inson ma`naviyatiga asos solinadi, xulqi qoidalari yuzaga keltiriladi, shaxsning ichki dunyosi, individual sifatleri ochib boriladi. Statistikaning ko`rsatishicha, xo`jalik yuritishning bozor siyosatiga o`tishi ijtimoiy institut sifatida oila holatiga ancha salbiy ta`sir ko`rsatdi. Demograflar tug`ilish kamayganini qayd etadilar. Sotsiologlar asotsial oilalar sonining o`sib borishini qayd etadilar va turmush darajasining pasayishini taxmin qiladilar. Hamma davrlarda ham oila o`zining bolalarini tarbiyalashda yordam olishga talabni his etgan. Tarixiy davr ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, odamlar katta oilalar bilan yashaganlarida, oilaviy hayotning zarur bo`lgan bilim va ko`nikmalari, avloddan-avlodga tarbiyaviy ravishda va oddiy kundalik jarayonda o`tib kelgan. Demak, oila-yaxlit sistemali tashkilotdir.

Psixologik ma`lumotlarga qaraganda oila turlari klassifikatsiyasiga ko`ra hozirgi zamon oilasi «Monogam oila»lardan iboratdir. Biroq hozirgi zamon monogam oilasi ham o`z navbatida bir-biridan tuzilishi, tarkibi, mohiyati va boshqa xususiyatlariga ko`ra yana bir qator turlarga bo`linadi. Hozirgi zamon oilalarining qanday turlarga ega ekanligi va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini bilish, ularga xos muammolarni o`rganish, oilaviy hayotda ro`y berishi mumkin bo`lgan noxushliklarning oldini olish imkonini beradi. Oila uni xarakterlovchi turli mezonlarga ko`ra quyidagilarga farqlanadi:

- 1. To`liqligiga ko`ra:** to`liq, noto`liq va qayta tuzilgan (ikkinchi nikoh) oilalar.
- 2. Bo`g`inlar soniga ko`ra:** nuklear (ota-ona va bolalardan iborat bo`lgan) va ko`p bo`g`inli (ikki va undan ortiq avloddan iborat oila a`zolari birga yashovchi) oilalar.
- 3.**

**Bolalar soniga ko'ra:** farzandsiz, bir bolali, ikki bolali, 3—4 bolali, 5 va undan ortiq bolali oilalar. Turli mamlakatlarda bu mezonlar turlichadir. Masalan, AQSH, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda 3—4 bolali oilalar ko'p bolali oilalar hisoblanadi. O'zbekistonda bunday oilalar farzandlar soni o'rtacha bo'lgan oilalar sarasiga kiradi.

**4. Er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra:** ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, ziyolilar oilasi, aralash tipdagi oila.

**5. Er-xotinning ma'lumot saviyasiga ko'ra:** oliy ma'lumotlilar, o'rta-maxsus, o'rta, tugatilmagan o'rta, maxsus yordamchi maktab ma'lumotiga ega bo'lgan qayliqlardan tashkil topgan oila.

**6. Oilaning «yoshiga» ko'ra:** yosh oila (1 yilgacha, 3—5 yil-lik, 6—10 yillik turmush tajribasiga ega bo'lgan oilalar), o'rta yoshdagi oila, yetuk yoshdagi oila (qariyalar oilasi).

**7. Qayliqlarning ota-ona oilasi** (ota-onasi)ning moddiy ta'minlanganlik darajasi jihatidan qudalarining bir-biriga mos ekanligi yoki ular orasida katta tafovut mavjudligi bo'yicha bir-biriga mos va mos bo'lmagan oilalar.

**8. Regional jihatlariga ko'ra:** shahar, qishloq, aralash tipdagi oila.

**9. Nikohdan qoniqqanlik saviyasiga ko'ra:** ajralish saviyasida — nikohdan qoniqqanlik darajasi quyi saviyada bo'lgan oila, o'rta saviyada va nikohdan qoniqqanlik darajasi yuqori saviyadagi oila.

**10. Oilada ayol yoki erkak yetakchiligiga ko'ra:** er yetakchi bo'lgan oila, xotin yetakchi bo'lgan oila, er va xotin yetakchilikni birga bajaradigan (biarxat) oila.

**11. Oilada er-xotin orasidagi munosabatlariga ko'ra:** avtoritar, demokratik, liberal, aralash tipdagi oilalar.

**12. Er-xotinning millatiga ko'ra:** bir millatli yoki baynalmilal oilalar. Baynalmilal oilalarni o'z navbatida ikkiga bo'lish mumkin: — dini, urf-odatlar yoki tili bir guruhga kirgan millat vakillari orasida nikohlar, masalan, o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq, o'zbek-turkman, rus-ukrain, o'zbek-tatar va boshqalar; — dini, urf-odatlar yoki tili bir guruhga kirmagan millat vakillari orasidagi nikohlar, masalan, o'zbek-rus, o'zbek-ukrain, o'zbek-eston, o'zbek-nemis va boshqalar.

**13. Yuridik rasmiylashtirilganligiga ko'ra:** sinovdagi oila (birga yashashadi, ammo hali nikohni rasmiylashtirmagan) rasmiylashtirish arafasidagi oila (birga yashashadi, oila qurish maqsadi aniq, ammo ayrim obyektiv sabablarga ko'ra rasmiylashtirish kechiktirilayotgan), nikohdagi oila, nikohdan tashqari oila (ayrim erkak kishilarning ikkinchi, uchinchi, yuridik jihatdan norasmiy oilasi). Nikohdan tashqari oilalarning ayrimlari pinhona bo'lsa, ko'pchiligi haqida erkak kishining birinchi oilasi va qarindoshlari bilishadi.

Hozirgi zamon pedagogikasi oldida turgan muammolardan biri - bu oilani jamiyatda moslashtirishdir (lotincha adapto moslashish), ya'ni oilaning zamonaviy

muhitda hayot sharoitlariga moslashishi hisoblanadi. Moslashish jaroyonining asosiy xarakteri oilaning jamiyatdagi ijtimoiy maqomiga bog`liq. Oilaning ijtimoiy maqomini aniqlash uchun uning bir qator funksional xarakterlari va oila a`zolarining individual xususiyatlarini bilish kerak.

Pedagogikada oilaning tuzilishi xarakteristikalarini quyidagicha:

1. Nikohli sheriklarning mavjudligi (to`la, rasman to`la,,to`la emas).
2. Oilaning hayotiy sikli bosqichi (yosh, yetuk, qari).
- 3..Nikoh tuzish tartibi (birinchi, takroriy...).
- 4..Oiladagi avlodlar soni (bitta, yoki bir necha avlodlar).
5. Bolalar soni (ko`p bolali, kam bolali...).

Ijtimoiy pedagogikaning faoliyati jamiyatda ijtimoiy moslashuvi darajasi bo`yicha farq qiladigan oilaning 4 kategoriyadagi tiplarini ajratishni ko`zda tutadi: **1. Tinch, baxtli oilalar** -o`z vazifalarini bajara oladilar; ijtimoiy pedagog yordamiga deyarli muhtoj emas. Bunday oilalar moslashish qobiliyati hisobiga, ya`ni moddiy, psixologik va boshqa ichki imkonoyatlariga aoslangan qobiliyati hisobiga o`z bolasining talab-ehtiyojlariga tezlikda moslashib oladi va uni tarbiyalash, rivojlantirish masalalarini muvaffaqiyatli hal etadi. Muammolar paydo bo`lgan hollarda ularga ijtimoiy pedagogning bir martalik yordami etarli bo`ladi.

**2. Xavfi bor guruhli oilalari** - qoidalardan bir qancha chetlanishi bilan ifodalanadi (to`la bo`lmagan oila, kam ta`minlangan oila va shu kabilar) bular oilaning moslashish qobiliyatini pasaytiradi. Ular bolalarni tarbiyalash vazifasini ko`p kuch ishlatib bajaradilar, shuning uchun ijtimoiy pedagog oila holatini kuzatib borishi kerak va kerak bo`lganda o`z vaqtda yordamini taklif etishi zarur.

**3. Notinch oilalar** - bu hayot faoliyati biror bir sohasida yoki bir vaqtda bir nechtasida past ijtimoiy mavqe`ga ega bo`lgan oilalar, masalan, oila daromadi past darajada, yomon psixologik muhit, oilada madaniyat darajasi past. Bunday oilalar ularga yuklatilgan vazifalarni bajara olmaydilar, ularning moslashish qobiliyati past, bolani oilaviy tarbiyalash jarayoni katta qiyinchiliklar bilan o`tadi, natijasi kam bo`ladi. Bunday turdagi oila uchun ijtimoiy pedagog tomonidan faol davomiy yordam kerak bo`ladi.

**4. Asotsional oilalar** - bu ota-onalari xulqi buzuvchi, qonunga xilof ravishda hayot kechirayotgan oilalar va bu oilalarda yashash –turmush sharoitlari eng oddiy sanitar-gigienik talablarga javob bermaydi. Bunday oilalarda odatda bolalar qarovsiz qoladilar, yarim och, yarim yalang`och bo`lib rivojlanishda ortda qoladilar, ota-onalar, boshqalar tomonidan ham jabrlanadilar, ijtimoiy pedagoglarning bunday oilalar bilan birgalikda hamda vasiylik qilish hamkorlikda olib borilishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi kunda zamonaviy rivojlangan jamiyatda avlodlar o`rtasidagi oilaviy aloqalar buzilmoqda. Shuning uchun jamiyat, undagi pedagogo, psixologlar ham oilani tashkil etish va bolalarni tarbiyalash haqidagi

zarur bilimlarni yetkazish bo'yicha ishlarni o'z zimmasiga oladi. Hozirgi paytda otanalarga mutaxassis psixologlar, ijtimoiy ishlar xodimlari, ijtimoiy pedagoglar va bolalarni tarbiyalash bo'yicha boshqa mutaxassislar yordami zarur. Ana shu mutaxassislar yordamiga nafaqat notinch, yomon sharoitdagi oilalar balki, bugungi kunda tinch, yaxshi oilalar ham muhtoj bo'lmoqda. Ularning oldida turgan maqsad esa bugungi kunda turli oilalarda yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish bilan birga ularga ruhiy ko'mak berish bo'lib kelmoqda.

Demak, o'zbek oilasining yuqoridagi ijtimoiy-psixologik klassifikatsiyalari, ularga xos psixologik xususiyatlar mutaxassislar tomonidan ilmiy o'rganilishi va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga xizmat qilishi kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

##### **1. OILA PSIXOLOGIYASI**

(Akademik litsey va kasb-hunar kollejiari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma ikkinchi nashr)

SHARQ NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT – 2008 G'.B.Shoumarov (40-41-b)

##### **2. OILA PEDAGOGIKASI**

(Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma Ikkinchi nashr)

SHARQ NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT – 2008 O.Hasanboyeva

##### **3. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI OILA PEDAGOGIKASI**

(o'quv qo'llanma) (5110900 – Педагогика ва психология) Andijon-2019 ISHANOVA M. (64-65-b)

4. Arxiv.uz

5. Qalampir.uz

6. [WWW.Ziyo.uz](http://WWW.Ziyo.uz)